



OILAVIY QADRIYATLAR VA FARZAND TARBIYASI

Uzokov Botir,

JizPI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti.

Javohir Madaminov,

103-TVM guruhi talabasi.

Annotatsiya: Maqolada jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan oilaviy qadriyatlarning farzand tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, oila, farzand, qadriyatlар, oilaviy qadriyatlар, turmush tarzi, nikoh, sog'lom turmush, axloq.

Jamiyat hayotining asosini tashkil etuvchi oila masalasi tarixiy nuqtai nazardan ijtimoiy hayotning ajramas muhim elementi hisoblanadi. Aslida oila, oilaviy tarbiya, yoshlar tarbiyasi kabi tushunchalar bevosita bugun shakllanib qolmaganligini tarixning o'zi isbotlaydi.

XX asrning o'rtalaridan boshlab jamiyat hayotida paydo bo'lgan xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'nnaviy o'zgarishlar natijasida insonlarning savodlilik darajasining o'sib borishi, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli sohalarida samarali faoliyat yuritishi, o'zlarining mehnati natijasida oila sharoitida er-xotin munosabatlarining o'zgarib borishi, bu esa o'z navbatida, oila-nikoh munosabatlariga o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Ya'ni, ushbu davrga kelib nikoh insonlarning o'z mulki va mavqeini keyingi avlodlarga yetkazish maqsadidagi sa'y-harakatlari majmui bo'lmay qoldi. Xususan, oilada ayollar iqtisodiy mustaqilligining ta'minlanishi bilan nikoh qachonlardir bo'lganidek iqtisodiy sheriklik zaruriyatining samarasи hisoblanmay qoldi. Professor M.N.Shmeleva ta'kidlaganidek, "Hayotiy yo'l nazariyasi, jamiyatning bir bo'lagi bo'lmish oila o'z rivojlanishining turli bosqichlarini o'tishida harakat strategiyalarining o'zgarishi, tashqi tarixiy sharoitlarga bevosita bog'liq bo'lgan holda ikki xil o'ringa ega bo'lgan: bir tomondan, u "individlarning ijtimoiy o'zgarishlarga adaptatsiyasini osonlashtiruvchi vositachi, boshqa tomondan esa, uning o'zi o'sha o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi omil bo'lgan" [1.223].

Hozirgi davrda esa oilada har tomonlama sog'lom, ma'nан barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli farzandlarni voyaga yetkazish har tomonlama ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun esa, avvalo oila tarbiyasiga alohida e'tibor berish zarurligi muhimdir. Aslida Sharq xalqlarida oila tarbiyasi deganda, farzandning har tomonlama rivojlanishi uchun eng muhim shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan, uni ijtimoiy hayotga tayyorlashga, har tomonlama kamol topgan insonni yuksaltirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi [2.456].

Sharqona axloqshunoslikdan kelib chiqqan holda shuni aytish lozimki, oilada farzand tarbiyasi bolaning tug'ilgan kundanoq boshlanadi, uning to'la mustaqil, individual va o'ziga xos bo'lgunicha uzluksiz davom etadigan jarayondir.

Sharqona oilaviy tarbiyaning asosiy ibratli shakli – bu er-xotinning o'zaro tarbiyasi, axloq-odobi, izzat-hurmati va shirinso'zligi, bir-biriga yordam berishi va birdamligidir. Er-xotin o'rtasidagi bu kabi fazilatlar farzandlar tarbiyasida ham muhim ahamiyatga egaligidir. Sababi, farzandga aytilgan pand-nasihatni esidan chiqarishi mumkin, lekin ko'z bilan ko'rganini hech qachon yodidan chiqarmaydi. Farzand tarbiyasining bu jihatiga e'tibor berish lozimdir. Oila masalasi bilan shug'ullanuvchi olimlarning ta'kidlashicha, oila tarbiyasi mazkur oilaning yanada mustahkamligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu olimlarning fikricha, yigit va qizning oila qurishidan asosiy maqsad farzandlar tarbiyasi bilan bog'langan bo'lsa, er-xotinning shaxs sifatida yanada rivojlanib borishini asoslasa hamda oila uchun asosiy sharoitnini, yashash joyining shinam va orastaligini ta'minlashga qaratilgan bo'lsagina, oilaviy munosabatlar yanada mustahkamlanadi [3.125].

Jamiyatda oila tarbiyasi asosan ota-onalar va oilaning yoshi katta a'zolari tomonidan amalga oshiriladigan jarayondir. Oila tarbiyasida muvaffaqiyatga erishish ko'p jihatdan oilada ham ota, ham onaning bo'lishi, ularning birdamlik va tenglikka erishishi, kuch-g'ayratlarini birlashtirishiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan qaraganimizda Birinchi Prezidentimiz I.Karimov :"Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo, har qaysi xonadondagi ma'nnaviy iqlimi o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao bo'lur edi. Bu haqda gapirganda, men mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridagi qahramonlarning o'zaro muomala va muloqotlari, ularning hatto kichik farzandlarini ham "siz"lab gaplashishi misolida ota-bobolarimizning oila ma'naviyatiga qanchalik katta e'tibor bergeniga ishonch hosil qilaman" [4.55], deb ta'kidlagan edilar.

Sharqona tarbiyada ma'naviyat, axloq-odob va ma'rifat-madaniy merosning tarkibiy jihatlari bo'lib, ularda



xalqimizning har tomonlama daholik qudrati, ongu-tafakkuri, ma'naviy-ruhiy qiyofasi, ezzgulik, yaxshilik haqidagi qarashlari, milliy qadriyatları o'z ifodasini topgan bo'ladi. Shubhasiz, madaniyat, ma'naviyat, qadriyat, axloq, ma'rifat, meros g'oyat keng qamrovli tushunchalar bo'lib, unda tarixan tarkib topgan muayyan bir xalqning ko'p asrlar davomida to'plagan moddiy va ma'naviy boyliklari, tili, so'z san'ati, qadriyatları, boy tarixi, tarixiy yodgorliklari, an'ana va rasm-rusumlari mujassamlashgan bo'ladi.

Aslida oila tarbiyasi ma'naviy-madaniy faoliyat tizimida mavjuddir. Haqiqatan ham, Sharqda oila har qanday davlat ichidagi o'ziga xos "davlat", bиринчи betakror, muayyan qonun-qoida va shart-sharoitlar oqibat natijasida vujudga keluvchi shunday ijtimoiy "tashkilot"ki, unda ijtimoiy hayot, avlodlar davomiyligi ta'minlanadi, urfatodatlarimiz, qadriyatlarimiz, xotira muqaddasligi va nihoyat, etnik madaniyat saqlab kelinadi, ayni chog'da rivojlantiriladi, avloddan-avlodga o'tgan tajriba yangi an'analar bilan boyitilib, kelgusi avlodlarga uzatiladi. Shuning uchun ham, ilmiy asarlarda keng iste'molda bo'lgan "oila tarbiyasi", "oila madaniyati", "oila ma'naviyati", "oilaviy muhit", "oila axloqi", "oila butunligi" kabi tushunchalarning har biri o'ziga xos ma'no-mazmunga ega bo'lib, milliy-madaniy qadriyatlar ichida alohida o'ren egallovchi oila fenomenini ta'riflashda muhim ahamiyatga egadir.

Er va xotin – ikki tirik vujudning, ikki olamning o'zaro ittifoqidan paydo bo'lgan uchinchi bir olam – bu oiladir. Birlashish iborasida, shubhasiz, ahillik, totuvlik degan ma'nolar ham mavjud. Agar oila chindanda tinchtotuv, ahil bo'lsa, oilaviy turmush tobora mustahkamlanib boradi. Binobarin, oila ma'lum xohish-istik, maqsad asosida birlashgan odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligidir [5.82].

Xulosa qilib aytish mumkinki, birinchidan, oila tarbiyasining manbalari muayyan xalqning asrlar davomida to'plagan milliy-madaniy qadriyatlariga mansub bo'lib, tarixiy ildizlari juda olislarga tutashadi. Oila tarbiyasining ilmiy-nazariy va metodologik asoslari esa, mustaqillik davri falsafiy tafakkurining mahsuli sifatida maydonga kelgan milliy g'oya hamda milliy va umuminsoniy madaniyat tamoyillarining uyg'unligida ko'rindi.

Ikkinchidan, milliy qadriyatlarga, sharqona axloqqa asoslangan o'zbek oilalarida o'z shaxsiy farovonligidan ko'ra oila sha'nining baland tutilishi, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlariga, qo'ni-qo'shnilariga g'amxo'rlik qilishning birinchi o'ringa qo'yilishi – oliy darajadagi maqsad bo'lib, oilani tashqi muhit bilan bog'lashga va mustahkamligining ta'minlishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, oilaning har bir a'zosiga xos axloqiy madaniyat, har bir insonning o'z burchi va mas'uliyatini anglashga undashi, oilaviy muhitda o'z o'rnini belgilay olishi, o'z oilaviy munosabatlarini hurmat qila bilishga erishishiga olib keladi.

To'rtinchidan, milliy madaniy meros namunalari bo'lgan xalq og'zaki ijodi, xalq pedagogikasi, milliy qadriyatlarimiz, adabiyot, san'at, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari asosida oilaviy ta'limgarbiyani olib borish oilada sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni qaror toptirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шмелёва М.Н. Развитие внутренних связей в современной городской семье русских в Центральной России.: Сборник. Семья. Традиции и современность. – М., 1990. – S. 223.
2. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati /O'zR Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati; tahrir hay'ati: X.Sultonov va boshq; tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. 456-bet.
3. Васильева Н. Семья как философская проблема: Сборник. Сила первого взгляда. – М., 1998. Савинов Л.И. Семья и общество: история, современность и взгляд в будущее. – Саранск., 1992. Малыгин Г.С. Смысль жизни и жизнь смысла. – Иркутск., 1998.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008. 55-bet.
5. Vatan tuyg'usi. – Toshkent: O'zbekiston, 1996, 82-b.